

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.04.2022.K.78.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

AHATOV ALISHER ASHUR O'G'LI

**BA'ZI d-METALLARNING 1,2-DIAMINOBENZOL VA 2,4-
DIGIDROKSIBENZOY KISLOTA BILAN ARALASH LIGANDLI
KOMPLEKS BIRIKMALARI SINTEZI, KRISTALL TUZILISHLARI VA
FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI**

**02.00.01-Noorganik kimyo
02.00.04-Fizik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz – 2025

**Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori (PhD) dissertatsiya avtoreferati
mundarijasi**

**Оглавление автореферата диссертации доктора философии (PhD) по
химическим наукам**

**Contents of dissertation abstract of doctor of philosophy (PhD) on chemical
sciences**

Ahatov Alisher Ashur o'g'li

Ва'зи d-metallarning 1,2-diaminobenzol va
2,4-digidroksibenzoic kislota bilan aralash
ligandli kompleks birikmalari sintezi, kristall
tuzilishlari va fizik-kimyoviy xossalari3

Ахатов Алишер Ашур угли

Синтез, кристаллическая структура и физико-химические
свойства комплексных соединений некоторых d-металлов
с 1,2-диаминобензолом и 2,4-дигидроксибензойной
кислотой со смешанными лигандами.....21

Ahatov Alisher Ashur ugli

Synthesis, crystal structures and physicochemical
properties of complex compounds of some
d-metals with 1,2-diaminobenzene and
2,4-dihydroxybenzoic acid with mixed ligands.....41

E'lon qilingan ishlar ro'uxati

Список опубликованных работ
List of published works.....44

**TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI HUZURIDAGI
ILMIY DARAJA BERUVCHI PhD.03/30.04.2022.K.78.05 RAQAMLI
ILMIY KENGASH ASOSIDAGI BIR MARTALIK ILMIY KENGASH**

TERMIZ DAVLAT UNIVERSITETI

AHATOV ALISHER ASHUR O'G'LI

**BA'ZI d-METALLARNING 1,2-DIAMINOBENZOL VA 2,4-
DIGIDROKSIBENZOY KISLOTA BILAN ARALASH LIGANDLI
KOMPLEKS BIRIKMALARI SINTEZI, KRISTALL TUZILISHLARI VA
FIZIK-KIMYOVIY XOSSALARI**

**02.00.01-Noorganik kimyo
02.00.04-Fizik kimyo**

**KIMYO FANLARI BO'YICHA FALSAFA DOKTORI (PhD)
DISSERTATSIYASI AVTOREFERATI**

Termiz – 2025

Falsafa doktori (PhD) dissertatsiyasi mavzusi O'zbekiston Respublikasi Oliy ta'lim, fan va innovatsiyalar vazirligi huzuridagi Oliy attestatsiya komissiyasida B2024.3.PhD/K818 raqam bilan ro'yxatga olingan.

Dissertatsiya Termiz davlat universitetida bajarilgan.

Dissertatsiya avtoreferati uch tilda (o'zbek, rus, ingliz (rezyume)) ilmiy kengash veb-sahifasida (www.tersu.uz) va «ZiyoNet» axborot ta'lim portalida (www.ziynet.uz) joylashtirilgan.

Ilmiy rahbarlar:

Turayev Xaylt Xudaynazarovich
kimyo fanlari doktori, professor

Ashurov Jamshid Mengnorovich
kimyo fanlari doktori, professor

Rasmiy opponentlar:

Ro'zimuradov Olim Narbekovich
Kimyo fanlari doktori, professor

Razzoqova Surayyo Razzoqovna
Kimyo fanlari bo'yicha falsafa doktori, dotsent

Yetakchi tashkilot:

Samarqand davlat universiteti

Dissertatsiya himoyasi Termiz davlat universiteti huzuridagi ilmiy daraja beruvchi PhD) 03/30.04.2022.K.78.05 raqamli Ilmiy kengash asosidagi bir martalik ilmiy kengashning 2025-yil «11» 02 soat 14⁰⁰ dagi majlisida bo'lib o'tadi (Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya bilan Termiz davlat universitetining Axborot resurs markazida tanishish mumkin (№ raqami bilan ro'yxatga olingan). Manzil: 190111, Termiz shahri, Barkamol avlod ko'chasi, 43-uy. Tel.: (+99876) 221-74-55, faks: (+99876) 221-71-17, e-mail: termizdu@umail.uz).

Dissertatsiya avtoreferati 2025-yil « 1 » 02 kuni tarqatildi.

(2025-yil « 1 » 02 dagi 1 raqamli reyestr bayonnomasi).



Z.Z. Yaxshiyeva
Ilmiy daraja beruvchi
bir martalik Ilmiy
kengash raisi, k.f.d., prof.

Y.A. Geldiyev
daraja beruvchi bir martalik
ilmiy kengash kotibi, k.f.d.

O.N. Ro'zimuradov
Ilmiy daraja beruvchi
bir martalik Ilmiy
kengash qoshidagi ilmiy
seminar raisi, k.f.d., prof.

KIRISH

Dissertatsiya mavzusining dolzarbligi va zarurati. Bugungi kunda dunyoda biofaol ligandlarning d-metallar bilan hosil qilgan kompleks birikmalari asosida olingan preparatlar tibbiyotda turli kasalliklarni davolashda va qishloq xo‘jaligida biostimulyator, fungidsid hamda gerbitsidlar sifatida qo‘llanilmoqda. Shuningdek, so‘ngi yillarda sintez qilinayotgan ayrim kompleks birikmalar saraton hujayralari bilan bog‘lana olishi va ular faoliyatini cheklashi tufayli bunday kompleks birikmalarga bo‘lgan qiziqish yanada ortmoqda. Shu boisdan yuqori biologik faollikka ega bo‘lgan kompleks birikmalar sintez qilish, ularning tarkibi, tuzilishi va xossalarini aniqlash hamda ular asosida tibbiyot va qishloq xo‘jaligi uchun zarur preparatlar olish muhim ahamiyat kasb etadi.

Ayni vaqtda, jahonning yetakchi ilmiy laboratoriyalarida kompleks birikmalarning tarkibi, kristall tuzilishi, fizik-kimyoviy va biologik xossalarini aniqlash bo‘yicha turli tadqiqotlar olib borilmoqda. Bu borada, ba‘zi d-metallarning 1,2-diaminobenzol (OPD) va 2,4-digidroksibenzoy kislota (2,4-DBA) bilan hosil qilgan kompleks birikmalarini sintez qilishning yangi usullarini, tarkibini, tuzilishini, metall va ligand tabiatini, koordinatsiyalanish mexanizmlarini, kvant-kimyoviy va fizik-kimyoviy xossalarini hamda biologik faolliklarini aniqlashga alohida e‘tibor qaratilmoqda.

Respublikamizda kimyo sanoatining yangi turdagi materiallarini ishlab chiqarish yo‘nalishida qator natijalarga erishilmoqda. Shu jumladan mahalliy bozorni import o‘rnini bosuvchi reagentlar bilan ta‘minlashda keng ko‘lamli ishlar amalga oshirilmoqda. Mamlakatimizda innovatsion texnologiyalarni tadbiq etish orqali sanoat obyektlarini yuritishning ilmiy asoslangan tizimi hamda atrof-muhitni muhofaza qilishning chora-tadbirlarini amalga oshirishga katta e‘tibor berilmoqda. Yangi O‘zbekistonning 2022-2026-yillardagi taraqqiyot strategiyasida¹ iqtisodiyotni rivojlantirishning ustuvor yo‘nalishlari belgilangan va “mahalliy xomashyo resurslarini chuqur qayta ishlash asosida yuqori qo‘shimcha qiymatli tayyor mahsulot ishlab chiqarishni yanada jadallashtirish, sifat jihatdan yangi mahsulot va texnologiya turlarini o‘zlashtirish...” bo‘yicha muhim vazifalar belgilab berilgan. Bu borada, iqtisodiyotimizning yetakchi tarmoqlaridan biri bo‘lgan kimyo sanoatini rivojlantirishda biologik faolligi yuqori bo‘lgan kompleks birikmalar sintez qilish va tadqiq etishga keng e‘tibor qaratilmoqda.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-son “2022-2026-yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni va 2020-yil 12-avgustdagi PQ-4805-son “Kimyo va biologiya yo‘nalishlarida uzluksiz ta‘lim sifatini va ilm-fan natijadorligini oshirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi, 2021-yil 13-fevraldagi PQ-4992-son “Kimyo sanoati korxonalarini yanada isloh qilish va moliyaviy sog‘lomlashtirish, yuqori qo‘shilgan qiymatli kimyoviy mahsulotlar ishlab chiqarishni rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida”gi Qarorlari hamda mazkur faoliyatga tegishli boshqa

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2022-yil 28-yanvardagi PF-60-sonli “2022-2026 yillarga mo‘ljallangan Yangi O‘zbekistonning taraqqiyot strategiyasi to‘g‘risida”gi Farmoni

me'yoriy-huquqiy hujjatlarda belgilangan vazifalarni amalga oshirishda ushbu dissertatsiya tadqiqoti natijalari muayyan darajada xizmat qiladi.

Tadqiqotning respublika fan va texnologiyalari rivojlanishining ustuvor yo'nalishlariga mosligi. Ushbu tadqiqot ishi Respublika fan va texnologiyalar rivojlanishining VII. "Kimyo, kimyoviy texnologiyalar va nanotexnologiyalar" ustuvor yo'nalishlariga muvofiq bajarilgan.

Muommoning o'rganilganlik darajasi. Tarkibida bir yoki bir nechta aminoguruh hamda karboksil guruh saqlagan halqali tuzilishga ega bo'lgan ligandlarning kompleks birikmalari sintezi, tuzilishi, biologik faolligi va fizik-kimyoviy xossalarni o'rganish dunyoning turli ilmiy laboratoriyalarida amalga oshirilgan. Jumladan, xorijda S. Supriya, K. Samar, S. Wang, R. Kockerbauer, P. Bednarski, G.A. Renovitch, W.A.Baker, I.M.Khan kabi olimlar 1,2-diaminobenzol (OPD) va 2,4-digidroksibenzoy (2,4-DBA) kislota hamda ular hosilalarining metallar bilan kompleks birikmalarini sintez qilish yuzasidan bir qator tadqiqot ishlarini amalga oshirishgan.

1,2-diaminobenzol va 2,4-digidroksibenzoy kislolaning monodentatli, bidentatli, bir va ko'p yadroli komplekslari sintez qilingan va ularning kristall tuzilishlarini rentgen tuzilish tahlil (RTT) usulida aniqlangan. Kembridj kristallografik ma'lumotlar bazasi (Cambridge Crystallographic Data Center, CCDC-2024) ma'lumotlariga ko'ra 1,2-diaminobenzol va uning hosilalariga oid 90 dan ortiq hamda 2,4-digidroksibenzoy kislolaning 40 dan ortiq monokristallari sintez qilingan va ularning tuzilishlari aniqlangan.

Mamlakatimizda ham kompleks birikmalarni sintez qilish, ularning tuzilishlari, xossalari hamda amaliyotga tadbiqu bo'yicha akademiklar N.A.Parpiyev, B.T.Ibragimov, professorlardan X.T.Sharipov, X.X.Xakimov, O.F.Xodjayeov, A.A.Shabilolov, T.A.Azizov, X.X.Turayev, B.B.Umarov, Sh.A.Kadirova, Sh.Sh.Daminova, Z.Ch.Kadirova, J.M.Ashurov, A.B.Ibragimov va Sh.A.Kasimovlar tomonidan bir qator tadqiqot ishlari amalga oshirilmogda.

Shuningdek adabiyot tahlili ma'lumotlariga ko'ra 1,2-diaminobenzol va 2,4-digidroksibenzoy kislota asosida kompleks birikmalarning sintezi bo'yicha bir qator tadqiqotlar olib borilganligiga qaramasdan, ularning tuzilishlari va xossalari yetarlicha o'rganilmagan.

Dissertatsiya tadqiqotining dissertatsiya bajarilgan oliy ta'lim muassasasining ilmiy-tadqiqot ishlarini rejalari bilan bog'liqligi. Mazkur tadqiqoti ishi Termiz davlat universiteti ilmiy-tadqiqot ishlari rejasiga asosan OT-F7-34-sonli "Kompleks hosil qiluvchi polifunksional ionitlar sintezi va ular yordamida ba'zi d-metallarni ajratishning nazariy asoslari" (2017-2020 yy) mavzusidagi fundamental loyihasi asosida bajarilgan.

Tadqiqotning maqsadi ba'zi d-metallarning 1,2-diaminobenzol va 2,4-digidroksibenzoy kislota bilan aralash ligandli kompleks birikmalari sintezi, ularning molekulyar, kristall tuzilishlari va fizik-kimyoviy xossalarni aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning vazifalari:

Co(II), Ni(II), Zn(II), Cd(II) kationlarining 1,2-diaminobenzol va 2,4-digidroksibenzoy kislota bilan aralash ligandli kompleks birikmalarini sintez qilish;

sintez qilingan kompleks birikmalarning kristall tuzilishlari, tarkibi va xossalarini zamonaviy fizik-kimyoviy tadqiqot usullari yordamida tahlil qilish;

sintez qilingan kompleks birikmalarning termik turg'unligi va turli erituvchilar ta'siriga barqarorliklarini aniqlash;

sintez qilingan kompleks birikmalarning gidratlanish va solvatlanish jarayonidagi termodinamik parametrlarining o'zgarishini (ΔH , ΔG va ΔS) hisoblash;

sintez qilingan kompleks birikmalarining elektron tuzilishi, reaksiyon qobiliyati, geometrik va energetik parametrlarini, molekulalararo ta'sirlashish energiyalarini kvant-kimyoviy usullar yordamida aniqlash;

sintez qilingan kompleks birikmalarning bakteriya shtammlariga qarshi biofaolligini aniqlash.

Tadqiqotning obyekti sifatida Co(II), Ni(II), Zn(II), Cd(II) tuzlari, 1,2-diaminobenzol va 2,4-digidroksibenzoy kislota, ular asosida sintez qilingan aralash ligandli kompleks birikmalar, shuningdek sintez qilingan kompleks birikmalarning biofaolligini aniqlash maqsadida *Bacillus subtilis*, *Escherichia coli*, *Pseudomonas aeruginosa*, *Staphylococcus aureus* va *Candida albicans* kabi bakteriya shtammlari tanlangan.

Tadqiqotning predmeti tarkibida azot, kislorod kabi donor atomlari tutgan 1,2-diaminobenzol va 2,4-digidroksibenzoy kislotalarining ba'zi d-metallari bilan aralash ligandli kompleks birikmalari sintezi, kristall va molekulyar tuzilishi, individualligi, kvant-kimyoviy parametrlari, fizik-kimyoviy hamda biologik xossalarini aniqlashdan iborat.

Tadqiqotning usullari. Sintez qilingan kompleks birikmalarning tarkibi, tuzilishi va xossalarini aniqlashda rentgen tuzilish tahlili, UB-spektrofotometrik, IQ- va Raman-spektroskopiya, termik analiz (TG, DTA) usullaridan hamda ORCA 6,00 CrystalExplorer 17.5, Mercury 3.8, Olex 2 va Avagadro kabi hisoblash dasturlaridan foydalanilgan.

Tadqiqotning ilmiy yangiligi quyidagilardan iborat:

ilk marotaba Co(II), Ni(II), Zn(II), Cd(II) kationlarining 1,2-diaminobenzol va 2,4-digidroksibenzoy kislota bilan aralash ligandli 9 ta yangi kompleks birikmalari sintez qilingan hamda monokristallari olingan;

RTT usuli yordamida sintez qilingan aralash ligandli kompleks birikmalarning tarkibi, tuzilishi, M-L koordinatsiyalanish qonuniyatlari va fazoviy holatlari aniqlangan;

sintez qilingan kompleks birikmalarning elektron tuzilishi, reaksiyon qobiliyati, energetik va geometrik parametrlari kvant-kimyoviy usullar yordamida aniqlangan. $[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ va $[\text{Zn}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ izostrukturali kompleks birikmalarning turli erituvchilar ta'sirida CPCM (o'tkazuvchilarga o'xshash qutblanuvchan muhit modeli) usuli yordamida termodinamik parametrlarining o'zgarishlari hisoblangan;

sintez qilingan kompleks birikmalarning molekulararo ta'sirlashish energiyalari va Hirshfeld sirt yuza tahlillari aniqlangan;

sintez qilingan kompleks birikmalarning termik turg'unligi va Babko usuli yordamida eritmalardagi barqarorlik doimiyliklari hisoblangan;

sintez qilingan kompleks birikmalarning bakteriya shtammlariga qarshi biologik faollik namoyon qilishi tajriba sinov natijalari asosida aniqlangan.

Tadqiqotning amaliy natijalari quyidagilardan iborat:

1,2-diaminobenzol va 2,4-digidroksibenzoy kislotalarning Co(II), Ni(II), Zn(II) va Cd(II) kationlari bilan aralash ligandli kompleks birikmalarini sintez qilishning maqbul sharoitlari aniqlangan;

olingan izostrukturali kompleks birikmalar tarkibidagi markaziy atomga bog'langan M1–O2, M1–N1 va M1–N2 bog'lar uzunligi Ni(II)<Zn(II)<Cd(II) qatorida ortishi RTT usuli yordamida aniqlangan;

sintez qilingan aralash ligandli $[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ va $[\text{Zn}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ kompleks birikmalar asosida Escherichia coli, Pseudomonas aeruginosa kabi bakteriya shtammlariga qarshi vosita ishlab chiqilgan.

Tadqiqot natijalarining ishonchliligi. Ba'zi d-metallar ionlarining 1,2-diaminobenzol va 2,4-digidroksibenzoy kislota bilan sintez qilingan kompleks birikmalarining tarkibi, molekulyar hamda kristall tuzilishlari RTT, IQ-, Raman-spektroskopiya, termik turg'unligi termik tahlil, eritmadagi barqarorliklari UB-spektrofotometriya va boshqa fizik-kimyoviy tahlil usullari yordamida aniqlanganligi, kvant-kimyoviy hisoblash asosida olingan natijalar tajriba natijalariga mos kelishi, shuningdek, olingan kompleks birikmalar dizinfeksiyalovchi vositalar olish uchun amaliyotga joriy etilganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati.

Tadqiqot ishining ilmiy ahamiyati Ni(II), Co(II), Zn(II), Cd(II) kationlarining 1,2-diaminobenzol va 2,4-digidroksibenzoy kislotalari bilan aralash ligandli yangi kompleks birikmalarini sintez qilish hamda ularning monokristallarini o'stirishning maqbul sharoitlari topilganligi, sintez qilingan aralash ligandli kompleks birikmalarning tarkibi, kristall tuzilishlari, xossalari RTT, IQ, Raman spektroskopiya, termik analiz usullari yordamida aniqlanganligi va molekulararo tasirlashish energiyalari, energetik va geometrik parametrlari zamonaviy kvant-kimyoviy usullar yordamida hisoblanganligi bilan izohlanadi.

Tadqiqotning amaliy ahamiyati shundan iboratki, $[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$, $[\text{Zn}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$, $[\text{Cd}(\text{OPD})_3](1.5\text{-NDK})_2$, $[\text{Cd}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$, $[\text{Cd}(\text{OPD})_3]\text{SO}_4 \cdot \text{H}_2\text{O}$, $[\text{C}_6\text{H}_9\text{N}_2]_2^+(\text{C}_{10}\text{H}_6\text{S}_2)^{2-}$, $[\text{Zn}(\text{OPD})_2(p\text{NBA})_2]$, $[\text{Ni}(\text{OPD})_2(3\text{-NFA})_2] \cdot \text{H}_2\text{O}$ tarkibli aralash ligandli kompleks birikmalarning kristallografik ma'lumotlari Kembridj kristallografik ma'lumotlar bazasiga kiritilganligi, o'xshash komplekslarni sintez qilishda, ularning tuzilishlarini xarakterlashda, taqdim etilgan ma'lumotlardan foydalanish imkonini, shuningdek 1,2-diaminobenzol va 2,4-digidroksibenzoy kislotalarining ba'zi d-metallari bilan sintez qilingan kompleks birikmalarining bakteriya shtammlariga qarshi bakteriosid xususiyatlarini namoyon qilganligi, dezinfeksiyalovchi vositalarga eritma ko'rinishida qo'shilganda ularning ta'sir samaradorligini oshirishga xizmat qiladi.

Tadqiqot natijalarining joriy qilinishi. Ba'zi d-metallarning 1,2-diaminobenzol va 2,4-digidroksibenzoy kislota bilan aralash ligandli kompleks birikmalari sintezi, fizik-kimyoviy xossalari hamda biologik faolligini aniqlash bo'yicha olingan ilmiy natijalar asosida:

[Ni(OPD)₂(2,4-DBA)₂], [Zn(OPD)₂(2,4-DBA)₂], [Cd(OPD)₃](1.5-NDK)₂·3H₂O, [Cd(OPD)₂(2,4-DBA)₂], [Cd(OPD)₃]SO₄·H₂O, [C₆H₉N₂]₂⁺(C₁₀H₆S₂)₂²⁻, [Zn(OPD)₂(pNBA)₂] va [Ni(OPD)₂(3-NFA)₂]·H₂O tarkibli aralash ligandli kompleks birikmalarning rentgen tuzilish tahlili ma'lumotlari Kembridj kristallografik ma'lumotlar bazasiga (<https://www.ccdc.cam.ac.uk/conts/retrievihg.html> Cambridge Crystallographic Data Center) kiritilgan va 2268254, 2268255, 2346685, 2402204, 2346687, 2268256, 2404717, 2404716 depozit raqamlari olingan. Natijada bazaga kiritilgan ma'lumotlar o'xshash birikmalarni sintez qilishda va tuzilishlarini tavsiflashda taqdim etilgan ma'lumotlardan foydalanish imkonini bergan.

Zn(II) kationining 1,2-diaminobenzol va 2,4-digidroksibenzoy kislota bilan hosil qilgan kompleks birikmasining ([Zn(OPD)₂(2,4-DBA)₂]) 0.03% li eritmasi "NOVA FARM" MCHJ O'zbekiston-Hindiston qo'shma korxonasida dezinfeksiyalovchi vositalar tayyorlashda amaliyotga joriy etilgan ("NOVA FARM" MCHJ ning 2024-yil 25-noyabrdagi 44-son ma'lumotnoma). Natijada bakteriyalardan himoyalovchi yuqori samarali dizenfeksiyalovchi vositalar olish imkonini bergan.

Tadqiqot natijalarining aprobatsiyasi. Ushbu tadqiqot ishi natijalari 12 ta, jumladan, 7 ta xalqaro va 5 ta respublika ilmiy-amaliy anjumanlarida ma'ruza qilingan hamda muhokamadan o'tkazilgan.

Tadqiqot natijalarining e'lon qilinganligi. Dissertatsiya mavzusi bo'yicha jami 19 ta ilmiy ish chop etilgan, shulardan O'zbekiston Respublikasi Oliy attestatsiya komissiyasining falsafa doktori (PhD) dissertatsiyalari asosiy ilmiy natijalarini chop etish tavsiya etilgan ilmiy nashrlarda 7 ta ilmiy maqola, jumladan, 4 ta respublika va 3ta xorijiy jurnallarda chop etilgan.

Dissertatsiyaning hajmi va tuzilishi. Dissertatsiya tarkibi kirish, to'rtta bob, xulosa, foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati va ilovalardan iborat. Dissertatsiyaning hajmi 118 betni tashkil etadi.

DISSERTATSIYANING ASOSIY MAZMUNI


Kirish qismida dissertatsiya ishining dolzarbligi va zaruriyligi asoslab berilgan, tadqiqotning maqsad va vazifalari belgilangan, uning O'zbekiston Respublikasida fan va texnologiyalarni rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlariga muvofiqligi ko'rsatilgan, tadqiqotning ilmiy yangiligi va amaliy natijalari bayon qilingan, ularning ishonchliligi asoslangan, tadqiqot natijalarining ilmiy va amaliy ahamiyati ochib berilgan, amaliyotga joriy qilish istiqboli borasida xulosalar chiqarilgan hamda chop ettirilgan ilmiy ishlar va dissertatsiyaning tarkibi to'g'risida ma'lumotlar keltirilgan.

Dissertatsiyaning "**1,2-diaminobenzol va 2,4-digidroksibenzoy kislotaning kompleks birikmalari, tuzilishi va xossalari**" deb nomlangan birinchi bobida ligandlarning molekulyar va elektron tuzilishi, xossalari va ishlatilishi bayon qilingan. Shuningdek 1,2-diaminobenzol va 2,4-digidroksibenzoy kislotasi asosida

sintez qilingan kompleks birikmalarning molekulyar va kristall tuzilishlari hamda fizik-kimyoviy va biologik xossalari bo'yicha adabiyotlar batafsil tahlil qilingan. Adabiyot tahlillari natijasida tanlab olingan ligandlarning tabiati hamda metall atomlari bilan koordinatsiyalanish qonuniyatlari aniqlangan.

Dissertatsiyaning “**1,2-diaminobenzol va 2,4-digidrosibenzoy kislotaning ba'zi d-metallar bilan aralash ligandli kompleks birikmalari sintezi va tadqiqot usullari**” deb nomlangan ikkinchi bobida olib borilgan tadqiqot doirasida foydalanilgan asboblar, tadqiqot usullari va olingan kompleks birikmalarning sintez jarayoni keltirilgan. Shuningdek olingan kompleks birikmalarning element tahlili, suyuqlanish harorati va ayrim erituvchilarda eruvchanligi keltirilgan.

[Ni(OPD)₂(2,4-DBA)₂, [Zn(OPD)₂(2,4-DBA)₂] va [Cd(OPD)₂(2,4-DBA)₂] izostrukturali kompleks birikma sintezi. Ushbu izostrukturali kompleks birikmalarni sintez qilishda boshlang'ich tuzlar: nikel (II) sulfat kristallogidratini ($\text{NiSO}_4 \cdot 7\text{H}_2\text{O}$) 0.281gr (1mmol), rux atsetat kristallogidratining ($(\text{CH}_3\text{COO})_2\text{Zn} \cdot 2\text{H}_2\text{O}$) 0.219 g miqdori (1mmol) va kadmiy atsetat kristallogidratidan ($(\text{CH}_3\text{COO})_2\text{Cd} \cdot 2\text{H}_2\text{O}$) 0.266gr (1mmol) dan olindi va suvli eritmaları tayyorlandi. So'ngra esa 1,2-diaminobenzol va 2,4-digidroksibenzoy kislotaning 0.1M eritmaları tayyorlandi hamda aralashtirildi. Hosil qilingan ligandlar aralashmasi Ni(II), Zn(II) va Cd(II) tuzi eritmalariga alohida-alohida qo'shildi. Boshlang'ich tuz va ligandlar 1:2:2 mol nisbatda olindi. Olingan reaksiyon aralashmalar 55-60°C haroratda magnitli aralashtirgichda 2 soat davomida aralashtirildi. So'ngra esa xona haroratigacha sovitildi va o'zgarmas haroratli termostatda (28±1°C) 12 kun saqlandi va sekin bug'latish usulida monokristallar olindi. Reaksiya unumlari $[\text{Zn}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ va $[\text{Cd}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ kompleks birikmalari uchun 80%, hamda $[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ kompleks birikmasi uchun esa 75% ni tashkil etdi. Sintez qilingan izostrukturali komplekslarning reaksiya tenglamasi 1-sxemada keltirilgan:




1-sxema. $[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$, $[\text{Zn}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ va $[\text{Cd}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ izostrukturali kompleks birikmalarning hosil bo'lish reaksiya tenglamalari.

Dissertatsiyaning “**1,2-diaminobenzol va 2,4-digidroksibenzoy kislota asosida olingan kompleks birikmalarning kristall tuzilishlari va fizik-kimyoviy xossalari**” deb nomlangan uchinchi bobida 1,2-diaminobenzol va 2,4-digidroksibenzoy kislotaning Co(II), Ni(II), Zn(II), Cd(II) kationlari bilan hosil qilgan kompleks birikmalarning molekulyar va kristall tuzilishlari, IQ- va Raman-spektroskopiyasi, termik tahlili (TG va DTA), UB-spektrofotometrik analizi hamda

turli erituvchilarda barqarorlik doimiyliklari aniqlangan va tahlil qilingan. Shuningdek sintez qilingan kompleks birikmalarning ayrim bakteriya shtammlariga qarshi biologik faolligi va amaliyotda qo'llash imkoniyatlari keltirilgan.

$[Ni(OPD)_2(2,4-DBA)_2]$, $[Zn(OPD)_2(2,4-DBA)_2]$ va $[Cd(OPD)_2(2,4-DBA)_2]$ izostrukturali kompleks birikmalarning molekulyar va kristall tuzilishlari. $[Ni(OPD)_2(2,4-DBA)_2]$, $[Zn(OPD)_2(2,4-DBA)_2]$ va $[Cd(OPD)_2(2,4-DBA)_2]$ izostrukturali kompleks birikmalarning molekulyar va kristall tuzilishlari RTT usuli yordamida aniqlandi, tahlil qilindi hamda taqqoslandi. Kompleks birikmalar neytral va simmetrik tuzilishga ega. Inersiya markazida metall atomi (Ni, Zn va Cd) joylashgan va unga 2 molekulasi OPD bidentat holatda hamda 2 molekula 2,4-DBA monodentat holatda birikadi. Sintez qilingan izostrukturali kompleks birikmalarning singoniyasi monoklinik va fazoviy guruhi P21/n. (1-rasm).



1-rasm. Izostrukturali kompleks birikmalarning molekulyar tuzilishi
 $[Ni(OPD)_2(2,4-DBA)_2]$ (a), $[Zn(OPD)_2(2,4-DBA)_2]$ (b) va $[Cd(OPD)_2(2,4-DBA)_2]$ (c).

Molekularlarda MN4 donor-akseptor bog'lari va MO2 ion bog'lari mavjud. Ularning fazoviy tuzilishi oktaedr shaklni hosil qiladi. OPD molekulasi markaziy atomga nisbatan buralishi va sirpanishi natijasida M1-N1 va M1-N2 bog' uzunliklari biroz farq qiladi. Ushbu kompleks birikmalarda metall atomlari koordinatsion soni barqaror holatda 6 ga teng. Olingan izostrukturali kompleks birikmalar tarkibida markaziy atomga bog'langan M1-O2, M1-N1 va M1-N2 bog'larining bog' uzunliklarining Ni(II)<Zn(II)<Cd(II) tartibida uzayganligini kuzatishimiz mumkin. Bu jarayonni markaziy atomning radiusi va elektron tuzilishi orqali tushuntirish mumkin (1-jadval).

1-jadval

Sintez qilingan izostrukturali kompleks birikmalarning ayrim bog' uzunliklari va bog' burchaklari


Kimyoviy formulasi	$[Ni(OPD)_2(2,4-DBA)_2]$	$[Zn(OPD)_2(2,4-DBA)_2]$	$[Cd(OPD)_2(2,4-DBA)_2]$
Mr	581.22	587.87	634.91
M1-O2	2.136(2)Å	2.213(2)Å	2.342(3)Å
M1-N1	2.110(3)Å	2.177(2)Å	2.360(4)Å
M1-N2	2.129(2)Å	2.158(3)Å	2.365(4)Å
O2-M1-N1	85.75(10)°	90.78(9)°	88.45(13)°
O2-M1-N2	90.21(9)°	86.78(9)°	91.31(13)°
O2-M1-O2	180.00°	180.00°	180.00°
CCDC-raqami	2346687	2346686	2402204

Sintez qilingan kompleks birikmalarning monokristallari RTT usulida tekshirilganda ularning aksariyat qismi singoniyasi monoklinik tuzilishga ega ekanligi aniqlandi. Ya'ni kristall yacheykadagi kompleks birikmalarning a,b va c o'qi bo'yicha hech qanday cheklanishlar yo'q, ammo a va b hamda b va c burchaklari 90° ekanligi aniqlandi.


2-jadval

Sintez qilingan kompleks birikmalarning kristallografik ma'lumotlari

Parametr	Kompleks birikmalar					
Formula	[Ni(OPD) ₂ (2,4-DBA) ₂]	[Zn(OPD) ₂ (2,4-DBA) ₂]	[Cd(OPD) ₂ (2,4-DBA) ₂]	[Zn(OPD) ₂ (pNBA) ₂]	[Ni(OPD) ₂ (3-NFA) ₂ ·H ₂ O]	[Co(OPD) ₂ SO ₄] _n
Mr	581.22	587.87	634.92	614.50	713.56	371.12
R-fac.%	3.81	4.21	4.62	3.26	4.18	4.86
Sin-ya	Mon-k	Mon-k	Mon-k	Tri-k	Tri-k	Orto-k
Fazo.gur.	P21/n	P21/n	P21/n	P-1	P-1	<i>Pbcn</i>
a, Å	5.5142(2)	5.5064(6)	5.498(1)	6.455(1)	6.7973(11)	23.39(11)
b, Å	18.875(7)	19.085(19)	19.367(5)	8.038(2)	9.753(15)	9.468(5)
c, Å	11.58(4)	11.54(10)	11.56(2)	12.58(2)	12.40(19)	6.84(3)
α°	90	90	90	95.14(2)	75.24(14)	90
β°	91.29(4)	91.72(9)	92.15(2)	94.38(2)	75.07(14)	90
γ°	90	90	90	98.00(2)	84.12(13)	90
V,	1205.34(8)	1212.8(2)	1230.59(4)	641.4(2)	767.7(2)	1516.2(1)
Z	2	5	5	3	3	7
Dx, g/sm ³	1.601	1.610	1.714	1.589	1.582	1.463
μ(CuKα) mm ¹	1.699	1.941	7.634	1.888	1.640	1.969



2-rasm. OPD ligandining IQ-spektri



3-rasm. [Ni(OPD)₂(2,4-DBA)₂] kompleks birikmasining IQ-spektri

OPD ligandining va [Ni(OPD)₂(2,4-DBA)₂] kompleks birikmaning IQ-spektri 2 va 3-raslarda keltirilgan. [Ni(OPD)₂(2,4-DBA)₂] kompleks birikmasining IQ-spektrida 3221 sm⁻¹ va 3211sm⁻¹ dublet sohasida NH₂-guruhlarining valent tebranishini ko'ramiz. C=O bog'ining valent tebranishini esa spektrning quyi chastotali 1635,64 sm⁻¹ sohasida kuzatildi. Aromatik halqaning halqa tekisligi bo'yicha tebranishini OPD molekulasida 1776 sm⁻¹, 2,4-DBA molekulasida 1653


sm^{-1} va $[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ kompleks birikmada esa 1647 sm^{-1} yutilish sohalarida ko‘rish mumkin. Shuningdek spektrda M–N va M–O bog‘larining tebranish chastotalari esa mos ravishda 567 sm^{-1} va 542 sm^{-1} yutilish sohalarida kuzatildi.

3-jadval


OPD, 2,4-DBA ligandlari va sintez qilingan $[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ kompleks birikmasining IQ-spektr tahlili

Modda	$\nu(\text{OH})$	$\nu(\text{NH}_2)$	$\delta(\text{NH}_2)$	$\nu(\text{C-N})$	$\nu(\text{C=O})$	Ar (C_6H_6)	M-N	M-O
OPD	-	3180	1631	1273	-	1776	-	-
2,4-DBA	3379	-	-	-	1623	1653	-	-
$[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$	3394	3211	1558	1101	1635	1647	567	542

Tanlangan ligandlar va olingan kompleks birikmalarning kukun holatidagi Raman-spektrlari va turli xil erituvchilar tasiridagi Raman-spektrlari bilan taqqoslandi. $[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ kompleks birikmasining kukun holatidagi bog‘lar va funksional guruhlarning Raman-spektri tebranish chastotalari etanol eritmasidagi tebranish chastotalariga yaqin ekanligi kuzatildi. Bu esa ushbu kompleks birikmaning etanoldagi eritmasida barqaror ekanligi haqida xulosa qilish mumkin.



4-rasm. $[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ kompleks birikmasining kukun holatidagi Raman-spektri




5-rasm. $[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ kompleks birikmasining etanol eritmasida olingan Raman-spektri

4-jadval


Kukun holatdagi va etanol eritmasidagi OPD hamda $[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ kompleks birikmasining Raman-spektri tahlili

Modda	$\delta(\text{OH})$	$\nu(\text{CH})$	$\delta(\text{NH}_2)$	$\delta(\text{C=O})$	Ar (C_6H_6)	M-N	M-O
OPD (kukun)	-	3062	1237	-	1630	-	-
OPD (eritma)	-	3057	1237	-	1630	-	-
$[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ (kukun)	1529	-	1281	1581	1773	459	322
$[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ (eritma)	1588	-	1287	1619	1826	456	322

OPD va $[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ kompleks birikmasining termik (DTA, TGA) tahlili. $[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ kompleks birikmasining termik analizi uchun 7.902 mg olinib 800°C haroratgacha olib borildi. Termogravimetrik analizi 4 bosqichda amalga oshdi va 3 ta endotermik effekt kuzatildi. Birinchi endotermik effekt 163.31°C haroratda kompleks birikma tarkibidagi OPD molekulalarining ajralishi hisobiga amalga oshdi. Shuningdek, 238.07°C 2,4-DBA molekulalarining ajralishi hisobiga ikkinchi endotermik effekt sodir bo‘ldi. 308.30°C haroratda esa kompleks birikma tarkibidagi halqa molekulalarining destruksiya uchraishi hisobiga uchinchi endotermik effekt kuzatildi. Jarayon oxirida esa metall oksidlari va organik qoldiqlar qoldi (7-rasm).



6-rasm. OPD ligandining derivatogrammasi



7-rasm. $[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ kompleks birikmasining derivatogrammasi

5-jadval

$[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ kompleks birikmasining termik tahlili

No	Harorat integrali ($^\circ\text{C}$)	Yo‘qotilgan massa, mg.	Yo‘qotilgan massa, %	Sarflangan energiya ($\mu\text{V} \cdot \text{s}/\text{mg}$)	Sarflangan vaqt (min)
1	26-281 $^\circ\text{C}$	1.567	19.83	19.616	26.69
2	281-419 $^\circ\text{C}$	0.827	10.46	12.493	14.05
3	419-565 $^\circ\text{C}$	2.314	29.284	3.90	14.95
4	565-800 $^\circ\text{C}$	0.755	9.55	19.54	24.54

Dissertatsiya ishining “**1,2-diaminobenzol va 2,4-digidroksibenzoy kislota asosida olingan kompleks birikmalarning kvant-kimyoviy hisoblashlari, molekulalararo ta’sirlashish energiyalari va Hirshfeld sirt yuza tahlillari**” deb nomlangan to‘rtinchi bobida olingan kompleks birikmalarning Hirshfeld sirt yuza tahlillari, kvant-kimyoviy xossalari hamda molekulalararo ta’sirlashish energiyalari hisoblandi va tahlil qilindi. Kompleks birikmalarning elektron tuzilishi ORCA 6.00 dasturiy paketi yordamida DFT (Density Functional Theory) usulida aniqlandi va molekula hosil bo‘lish jarayonida elektronlar singlet, triplet va quartet spin holatlarida hisoblandi. Olingan kompleks birikmalar elektron zichliklarining ESP (elektrostatik sirt potensial) sath yuzalari aniqlanib, molekulalarning elektrodonor


va elektroakseptor qismlari aniqlandi. Kompleks birikmalarning qutbsiz erituvchilardan qutbli erituvchilarga o'tish jarayonida termodinamik parametrlarning o'zgarishi tahlil qilindi.

6-jadval

[Zn(OPD)₂(2,4-DBA)₂] va [Ni(OPD)₂(2,4-DBA)₂] izostrukturali kompleks birikmalarining DFT usulida hisoblangan umumiy energiyalari, kkal/mol


Kompleks	Singlet	Triplet	Quartet
[Zn(OPD) ₂ (2,4-DBA) ₂]	-2261352.52	-2261316.87	-2261301.09
[Ni(OPD) ₂ (2,4-DBA) ₂]	-2091389.65	-2091409.72	-2091401.42

Tahlil natijalariga asosan [Zn(OPD)₂(2,4-DBA)₂] kompleksida Zn(II) kationining tashqi orbitalida juft elektronlar (3d¹⁰) mavjudligi tufayli singlet holatida va [Ni(OPD)₂(2,4-DBA)₂] kompleksida esa Ni(II) kationida 2 ta toq elektroni mavjudligi tufayli (3d⁸) triplet holatida optimal holatni egallashi aniqlandi.



8-rasm. 2,4-DBA molekulasining molekulyar orbitalarining chegaraviy elektron zichliklari

Tadqiqot ishimizda dastlab boshlang'ich ligand sifatida foydalanilgan 2,4-digidroksibenzoy kislota molekulasining kvant-kimyoviy xossalari aniqlandi. 2,4-DBA molekulasining barqarorligi o'rtacha va reaksiya qobiliyati yuqori ligandlar qatoriga kiradi. Molekulasining YuBMO va QBMO energiyalari mos ravishda 9.26 eV va 5.37 eV ga teng (E(GAP)=3.89 eV). Molekulasining ESP sath yuzalarida nukleofil markazlar karboksil guruhidagi kislorod atomlariga tegishli va elektrofil markazlar esa ikkinchi gidroksil guruhidagi vodorod atomiga tegishli ekanligi aniqlangan. ESP sath minimum va maksimumi mos ravishda -78.76 va +78.76 ga teng (8-rasm).



9-rasm. [Zn(OPD)₂(2,4-DBA)₂] (a) va [Ni(OPD)₂(2,4-DBA)₂] (b) kompleks birikmalarining MO 3D modeli hamda YuBMO va QBMO energetik qiymatlari

Shuningdek, [Ni(OPD)₂(2,4-DBA)₂] va [Zn(OPD)₂(2,4-DBA)₂] izostrukturali kompleks birikmalarning B3LYP/def2-TZVP usulida ORCA 6.00 dasturiy paketi


yordamida YuBMO va QBMO energiya qiymatlari aniqlandi. $[\text{Zn}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ kompleks birikmaning tirqish energiyasi $E(\text{GAP})=5.12\text{eV}$ ga teng. $[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ kompleks birikmasi esa 2 xil konformatsion holat uchun tirqish energiyalari 5.13 eV va 4.06 eV ga teng (9-rasm). Izostrukturali $[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ va $[\text{Zn}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ kompleks birikmalarning DFT hisoblashlari asosida ularning η , σ , ΔE , χ va ω qiymatlari hisoblab chiqarildi (7-jadval).

7-jadval

$[\text{Zn}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ va $[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ kompleks birikmalarining kvant-kimyoviy parametrlari

Kvant-kimyoviy parametrlar	$[\text{Zn}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$	$[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2] (\alpha)$	$[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2] (\beta)$
E_{YuBMO} , eV	-5.83	-5.81	-5.81
E_{QBMO} , eV	-0.71	-0.68	-1.75
$ \Delta E =E_{\text{YuBMO}}-E_{\text{QBMO}}$, (eV)	5.12	5.13	4.06
Ionlanish potentsiali, $I=-E_{\text{YuBMO}}$, eV	5.83	5.81	5.81
Elektronga moyillik, $A=-E_{\text{QBMO}}$, eV	0.71	0.68	1.75
Elektromanfiylik, $\chi = (I + A)/2$ (eV)	3.27	3.24	3.78
Kim. qattiqlik, $\eta = (I - A)/2$ (eV)	2.56	2.56	2.03
Kim. potentsial, $\mu_p = -(I + A)/2$ (eV)	-3.27	-3.24	-3.78
Kim. yumshoqlik, $\sigma = 1/(2\eta)(\text{eV})^{-1}$	0.19	0.19	0.24
Elektrofillik indeksi, $\omega = \mu_p^2/2\eta$ (eV)	2.09	2.05	3.52

Shuningdek izostrukturali komplekslarning elektronga boy (nukleofil) va elektron taqchil (elektrofil) qismlarini aniqlash maqsadida MultiWFN dasturi yordamida ESP (elektrostatik sirt potentsiali) tahlili amalga oshirildi. Unga ko'ra ESP sathining minimumi ya'ni ortiqcha elektronli soha 2,4-DBA molekulasidagi metall atomiga birikkan kislorod atomiga tegishli. Bu qiymat $[\text{Zn}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ va $[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ kompleks birikmalari uchun mos ravishda -32.61 va -33.33 kcal/mol ga teng. ESP sathining maksimumi ya'ni elektron taqchil soha esa 2,4-DBA molekulasining ikkinchi OH guruhidagi vodorod atomlariga tegishli hamda $[\text{Zn}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ va $[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ komplekslari uchun tegishli 47.74 va 47.48 kcal/molga teng.



10-rasm. $[\text{Zn}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ va $[\text{Ni}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ kompleks birikmalarining chegaraviy elektron zichliklari

Kvant-kimyoviy parametrlarning erituvchilar ta'sirida gaz fazaga nisbatan o'zgarishini aniqlash maqsadida ORCA 6.00 dasturida CPCM usulida suv, atseton, metanol va etanol muhitida hisoblash jarayonlari olib borildi. Ushbu jarayonda entalpiya (ΔH), gibbs energiyasi (ΔG) va entropiyaning (ΔS) o'zgarishlari aniqlandi. $[\text{Zn}(\text{OPD})_2(2,4\text{-DBA})_2]$ kompleks birikmada erituvchilar dielektrik

singdiruvchanligining (ϵ) ortishi bilan entalpiya (ΔH) va Gibbs energiyalarining (ΔG) qiymatlari kamayishi hamda entropiya qiymatining ortishi kuzatildi. Ushbu holatlar xuddi real eritmalaridagi (qattiq moddalarning erituvchilar ta'sirida erib, entropiyaning ortishi) kabi spontan ravishdagi jarayonlarga mos keladi (8-jadval).

8-jadval

[Zn(OPD)₂(2,4-DBA)₂] kompleksining ayrim erituvchilar ishtirokida solvatlanish jarayonidagi fizik-kimyoviy ko'rsatkichlari


Erituvchi (ϵ)	ΔH , kkal/mol	ΔG , kkal/mol	ΔS , kkal/mol
Gaz(0)	218.86	278.23	-59.37
Atseton (20.7)	218.56	277.73	-59.17
Etanol (24.3)	217.55	276.4	-58.85
Metanol(32.63)	216.99	275.51	-58.52
Suv (80.4)	216.95	275.16	-58.21

9-jadval

